



“ILM VA IZLANISH ERKIN KELAJAK QURMOQ”

“University of economics and Pedagogy” NOTM, Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasи dotsenti,

ABDURAZAQOVA FERUZA

Boshlang’ich ta’lim yo`nalishi
3-bosqich talabasi

Nurmatova Zilola G‘anijon qizi

“Bilim bilan saodat yo‘li ochiladi, shunga ko‘ra, Ilmli bo‘l, baxt yo‘lini izla”

“Ahmad Yugnakiy”

Annotations

Ilm olish butun umr davom etadigan sayohatdek gap. Hech qachon ilmni oxiri bo'lmaydi, faqatgina inson uni ozginasini biladi hammasini emas. Ilm-tugamas hazinadir. Qanchalik ko'p o'qisak, izlansak shunchalik ilmni ichiga kiramiz, va yanada tushuna boshlaymiz!

Abstract

Learning is like a lifelong journey. There will never be an end to science, only man knows a little of it, not all of it. Science is an inexhaustible treasure. The more we read and search, the more we enter science, and the more we begin to understand!

Annotations

Обучение похоже на путешествие длиною в жизнь. Науке никогда не будет конца, только человек знает ее немного, а не всю. Наука есть неиссякаемое сокровище. Чем больше мы читаем и ищем, тем больше мы входим в науку, и тем больше начинаем понимать!

Kalit so‘zlar: ilm, izlanish, jadidlar, maktab, bog‘cha, universitet, kasb, hunar.

Keywords: science, research, jadids, school, kindergarten, university, profession, profession.



Ключевые слова: наука, исследования, джадиды, школа, детский сад, вуз, профессия, професси

Jadidchilik o'zidagi qaysi belgilar bilan favqulotta xodisa edi? Birinchidan uning noyobligi (fenomeni), avvalo, unda g'oyatda yuqori darajadagi aql-idrokli, ham Sharq, ham Yevropa madaniyatiga xos bilimlarga ega bo'lgan ziyolilar jamlanganligi bilan belgilanadi. O'tmishga nazar solib, uni o'rganib, o'z davrini taxlil qilgan Jadidlar o'z vatanining kelajagi loyihasini tuza bildilar, uning rivojlanish yo'llarini rejalashtirdilar. Loyihamizning dolzarbliji shundan iboratki, bugungi rivojlanib borayotgan mustaqil O'zbekistonimizda Oliy ta'lif sohasiga berilayotgan e'tibor, yoshlarni o'quv jarayonlariga qiziqtira bilish, o'z ustida ishslash, zamon talablari darajasida bilimli, salohiyatli kadrlarni tayyorlashdan iborat.



Maqsadimiz yangi O'zbekistonning rivojlanishda yosh avlodni qobilyatiga, layoqatiga va ixtidoriga qarab o'z hayot yo'lini tanlashi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ziyolilarimiz aytgandek „Qulni qul ekanligini anglab ozodlikka chiqish uchun unda o'z ahvoliga ongli nazar tashlash qobiliyatini xosil etish talab qilinadi”. Gasprinskiyning ushbu gapidan kelib chiqib jahon xalqalari qatori

bilimli, teran fikrli, iqtidorli yosh mutaxasislarni o'z kasbining egasi qilish maqsadimiz.

O'sib kelayotgan yosh avlodni ta'lif olish jarayonida oldiga qo'ygan maqsadlarini zamon talablari darajasida milliylikdan kelib chiqqan xolda amalga oshirish. Bunda biz asosiy vazifamiz bugungi kunda O'zbekistonda tashkil qilingan ta'lif sohasidagi yutuq va kamchiliklarni o'z fikrlarimizni va qarashlarimiz orqali fikr bildirish. Bunda ta'lif sohasida uchrab turgan qo'pol, eski tizimdan qolgan uslubdan qutilish, yangicha fikrlash, yangicha qarash il-fan yutuqlari yuqori nuqtaga chiqan hozirgi davr yoshlari ongi va tafakkuriga mos ta'lif konsepsiyasini yaratishda ko'maklashishdan iborat.

Bolani kasbga yo'naltirishda maktabgacha ta'lilda bugungi kundagi metodikaga o'zgartirish kiritib ota-onal bilan tarbiyachi va farzandni o'zaro uzviy doimiy bog'liq xolatga keltirishni maqsad qo'ydik. Bunda ota- ona o'z farzandiga yoshi va qobilyatidann kelib chiqib har haftada bir marotaba yuqori sifat asosida tayyorlangan ruxshunos va bolalar pedagogi tavsiyasi bilan rangli surat, rasm va so'zlardan iborat bo'lgan kitobchalarni farzandiga olib berishi, farzandi bilan kunda 60-120 minut davomida shug'ullanishi va bunimg amaliy natijasini maktabgacha ta'lif musasassasiga o'z tengqurlari bilan o'rtoqlashishga tarbiyachi tomonidan amaliy yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish. Har oyda farzandiga turli konstrekativ qurilmalarni olib berish va buning yasalishini tarbiyachi, ota-onal nazoratiga olishi.

Maktab davrida maxsus sinflar tashkil etilishi o'quvchilar iqtidoriga qarab bir maktabning o'zida bir necha turdag'i kasbga yo'naltirilgan sinflarni tashkil etish, maktab o'quvchilari o'rtasida bosqichma bosqich har oyda fanlar va kasblar bo'yicha turli tanlovlardan tashkil etish ularni yanada qiziqtirish uchun rag'batlantirish. Maktab o'quv mashg'ulotlarini 60-70 foizgacha amaliy darslarga yo'naltirish. O'zlashtirilayotgan mavzular bo'yicha o'quvchining yoshi va qobilyatidann kelib chiqib mavzuga daxldor qo'shimcha adabiyotlarni o'qish va xuloslar chiqishga yo'naltirish.

Maktablar qoshida va har bir tumanlarda yosh ixtirochi olimlar to'garaklarini ishlarini jonlantirish ularning natijalariga qarab rag'batlantirish. Maktab davrida

o'quvchilarni ma'lum bir kasbga yo'naltirish, ularni rag'batlantirish va iqtidor qobilyatidan kelib chiqib oily ta'limda o'qishini davom ettirishni ta'minlash.

Oliy ta'limda talaba iqtidoriga qarab kasbiy yo'nalishga yo'naltirmig'i lozim. Kichik akademik guruuhlar tashkil etilishi, ko'proq talabaning mustaqil ta'lim olishiga imkoniyat yaratish, talaba zamonaviy bilimlar ko'nikmalar olishi uchun malakali murabbiylarga biriktirilishi lozim. O'quv mashg'ulotlari hozirgi kundagidek faqat auditoriya soati bo'lmasdan amaliy mashg'ulotlar ko'paytirilishi kerak. Talabalar o'rtasida fikr, bilim va ko'nimani almashtirish va mustahkamlash maqsadida o'quv yili davomida qo'shni oily o'quv yurtlaridagi mashg'ulotlarga alamshuvchi talaba va murabbiy amaliyotini joriy qilish kerak. O'quv xonalari zamonaviy do'skalar bilan jihozlangan bo'lib bunda kerakli fanning mavzuning mutaxasislari bilan video darslarni tashkil etish kerak. Universitet talabalari o'rtasida mustaqil matbuot nashrini joriy qilish kerak. Talablar tomonidan ixtiyoriy professor o'qituvchi tanlovini joriy qilish kerak. Fan nomzodi, fan doktori ilmiy darajasini olgan murabbiyni bilimi bilan cheklanmay qobilyatli malakali o'qituvchilarga tayanmoq kerak. O'quv rejadagi fanlarni kerak bo'lsa guruuhlar kesmida talabalar muhokamasi asosida shakllantirmoq kerak. Erkin audiyoturalarni tashkil etish kerak. Kafediralar tomonidan tanlov, kurs ishi, konfirensiyalar, ilmiy ishlar tematikalari do'skalari yaratilmog'i lozim.

Oliy ta'limda sifatli bilim olishdan talabalarining manfaatdorligini oshirish uchun o'quv jarayoni va metodikasini o'zgartirish yo'llari yo'nalishi bo'yicha tayyorlab bunda Yangi O'zbekiston davrida yosh yetuk mutaxasislarni yetkazish, ularning ilmiy salohiyatini o'stirishda ta'limda amalga oshirilishi lozim bo'lgan turkum takliflarimizning asosi avvalambor yoshlar oily ta'limga kimningdir ixtiyori bilan emas o'zining malakasi qiziqishi, iqtidoridan kelib chiqib taxsil olishi maqsadga muvofiq deb bilaman va yuqoridagi takliflarimdan kelib chiqib biz xorijiy mamlakatlar ta'lim erishgan yutuqlarini o'rganib milliy o'z konsepsiyanimizni yaratishimiz lozim deb bilaman.

Yosh avlodni tillar kesmida bilimli qilish bilan birlgilikda ular qalbiga ona zamin tuyg'usini singdirish va unga muhabbat tuyg'sini orttirish lozim deb bilaman.

Yuqorida fikrimni boshlashda men Jadidlar ilgari surgan g'oyadan kelib chiqib Vatan muqaddasligi uning erk va ozodligi uchun jonni fido etish, uning ravnaqi yo'lida bilim va ko'nikmalarni ayamaslik kerak deb bilaman.

ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1.Ozbekiston tarixi, darslik,T.2020

2.A. Zunnunov va boshqalar. Pedagogika tarixi. — T.: Sharq, 2000.

3.Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent "Ma'naviyat" 2004.

4.Mirzayev S. O'zbek adiblari. "Fan". 2002.